



**4-SINF TARBIYA DARSLIGIDAGI
“BOBOLARIMIZNING BEBAHO MEROSI”
MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL
USLUBLAR VA PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASH**

Tojiyeva Iroda Sadatovna,
*Xalqaro innovatsion universiteti “Pedagogika”
kafedrası dotsenti*



Shoimov Anvar Mamarizayevich,
*Xalqaro innovatsion universiteti “Pedagogika”
kafedrası dotsenti*



E-mail: tojivvairoda9@gmail.com

Orcid: 0009-0006-2434-8386

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18531564>

**APPLICATION OF INTERACTIVE METHODS
AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN
TEACHING THE TOPIC “THE PRICELESS
HERITAGE OF OUR FOREIGNERS” IN THE
4TH GRADE EDUCATION TEXTBOOK**

Tojiyeva Iroda Sadatovna,
*Associate Professor, Department of "Pedagogy",
International Innovation University*



Shoimov Anvar Mamarizayevich,
*Associate Professor, Department of Pedagogy,
International Innovative University*

**ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ
МЕТОДОВ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ
«БЕСЦЕННОЕ НАСЛЕДИЕ НАШИХ
ИНОСТРАНЦЕВ» В УЧЕБНИКЕ ДЛЯ 4-ГО
КЛАССА**

Тоджиева Ирода Садатовна,
*доцент кафедры педагогики Международного
инновационного университета*



E-mail: shoimovanvar8626@gmail.com

Orcid: 0009-0006-2434-8386

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18531564>

Шоимов Анвар Мамаризаевич,
*доцент кафедры «Педагогика» Международного
инновационного университета*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 4-sinf tarbiya darsligidagi “Bobolarimizning bebaho merosi” mavzusini o‘tishda interfaol uslublari va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash to‘g‘risida ma‘lumot beriladi. Bu metodlar maktabda ta‘lim bilan birgalikda olib boriladi. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirishda yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, allomalar, olimlar, Ma‘mun, akademiya, o‘quvchi, usul, metod.

Аннотация: В данной статье представлена информация об использовании интерактивных методов и педагогических технологий в учебнике для 4-го класса по теме



«Бесценное наследие наших предков». Эти методы используются в сочетании со школьным образованием. Они помогают учащимся развивать знания, навыки и компетенции.

Ключевые слова: Образование, ученые, исследователи, Мамун, академия, студент, метод, метод

Abstract: This article provides information on the use of interactive methods and pedagogical technologies in the 4th grade textbook on the topic "The Priceless Heritage of Our Ancestors". These methods are used in conjunction with school education. They help students develop knowledge, skills, and competencies.

Keywords: Education, scholars, scientists, Ma'mun, academy, student, method, method.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy iftixor va ma'naviy merosga hurmat tuyg'ularini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning dunyoqarashi, axloqiy-estetik qarashlari va fuqarolik pozitsiyasi shakllanishida tarbiya fanining o'zni beqiyosdir.

4-sinf tarbiya darsligidagi "Bobolarimizning bebaho merosi" mavzusi o'quvchilarni xalqimizning boy tarixi, ma'naviy-ma'rifiy merosi, ulug' allomalar, buyuk sarkardalar va ma'rifatparvar ajdodlar hayoti hamda faoliyati bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Ushbu mavzu orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga sadoqat, vatanparvarlik, ajdodlar merosiga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin.

Mazkur mavzuni o'qitish jarayonida interfaol usullar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoada ishlash, muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish kabi kompetensiyalar aynan interfaol ta'lim orqali samarali shakllanadi.

Shu bois, ushbu maqolada 4-sinf tarbiya darsligidagi "Bobolarimizning bebaho merosi" mavzusini o'qitishda interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati, imkoniyatlari hamda amaliy jihatlari yoritib beriladi. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma vazifasini o'tashiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

4-sinf tarbiya darsligidagi "Bobolarimizning bebaho merosi" mavzusini o'tishda interfaol metodlar.



Tarbiya jarayonini samarali tashkil qilishning muhim komponentlaridan biri tarbiya vositalari hisoblanadi. O‘z davrida taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy tarbiya vositalarini bolaning hayoti, uning tashqi olam bilan munosabati, hamkorlikdagi ish va muloqotidan iborat deb ta’kidlagan edi. To‘g‘ri tanlangan va pedagog tomonidan qo‘llanadigan metodlar tizimiga kiritilgan vositalar tarbiyalanuvchiga tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Buning oqibatida ular o‘quvchi va talabalar tomonidan tarbiyaviy ta’sirning mohiyatini bevosita anglash va ularning kuzatuvchanligi va ta’sirchanligini kuchaytirib, fikrlash, ya’ni tarbiyachi maqsadini tezroq fahmlashga asos bo‘ladi.

Interfaol metodlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va o‘quvchilarda quyidagi jihatlar alohida rivojlanadi:



7-chizma

1-USUL:“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH”

Metodning tavsifi: Hamkorlikdagi ta’limning bir ko‘rinishi-kichik guruhlariga bo‘linganda uning a’zolari 4-6 kishi bo‘lishi maqsadga muvofiq. Guruhda ishtirokchilar sonining ko‘pligi guruh a’zolarining faol ishtiroklarida xalaqit beradi; guruh tarkibini tanlashda albatta guruhdagi “a’lo” o‘zlashtiruvchi, “yaxshi” va “qoniqarli” o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar kiritilishi talab qilinadi. Hech qachon “kuchlilar” va “kuchsizlar” tuzilmasligi lozim; guruh a’zolari guruhning o‘zlashtirishiga qarab, yangilanib turishi lozim.

Metodni tashkil qilish: Bu yondoshuvda kichik guruhlar 4 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘quvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi,



soʻngra guruh aʼzolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. Oʻqituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

Metodning ahamiyati: Topqirlik, olgan bilimlarini tezda esga olish xususiyati takomillashadi.

Fanlararo integratsiyasi: Oʻquvchilarning kichik guruhlardagi oʻquv faoliyati oʻyin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. [3]

2-USUL: “ENG YAXSHI MUXBIR” METODI:

Metodning tavsifi: Bu metoddan asosan darsning tashkiliy qismida foydalansak maqsadga muvofiq boʻladi. Oʻquvchilar media axborot orqali eshitgan yangiliklarni toʻplab darsning kirish qismida aytib beradilar. Oʻqituvchi kimning axboroti serqirra va qiziqarli boʻlsa oʻsha oʻquvchi “eng yaxshi muxbir” nominatsiyasini oladi. Bu belgi har bir darsda qoʻllanilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Metodni tashkil qilish: Oʻquvchilarni baholashda har guruhning toʻgʻri javoblari uchun ballar berib boriladi va u ballar mana shu tarix bankida toʻplanadi. Har bir oʻquvchi yakka javob bersa oʻziga ball, guruh boʻlib ishlaganda guruhga ball beriladi va dars oxirida har bir oʻquvchi va guruhning ballari hisoblanadi va gʻolib oʻquvchi va guruh aniqlanadi.

Metodning ahamiyati: Tashkiliy qism jarayonida har bir darsda dunyo siyosiy yangiliklarini tiklash ham oʻquvchilarni Vatanimiz va dunyoda sodir boʻlayotgan voqealarni tahlil qilishga undaydi. Bu jarayonda “ENG YAXSHI MUXBIR” metodini qoʻllash oʻquvchilarni yanada har darsda yangiliklar topib kelishga undaydi.

Fanlararo integratsiyasi: Bu metodni har bir darsda qoʻllanilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

3-USUL: “AYTCHI MENGA” MASHQI:

Metodning tavsifi: Ushbu mashqni bajarish oʻzlari javob berishni hohlaydigan savolga javob beradilar

Mashqni oʻtkazish tartibi: Bu ish 4 kishidan iborat guruhlarda uch bosqichda oʻtkaziladi:

1. Barcha ishtirokchilarga tarqatuv varagʻi beriladi va bu varaqda aks ettirilgan savollardan biri oʻng tomondagi qoʻshni ishtirokchiga beriladi. U bir daqiqa davomida berilgan savolga javob beradi. Keyin javob bergan ishtirokchi varaqdagi savollardan birini tanlab, oʻzining oʻng tomondagi qoʻshnisiga beradi. Va bu jarayon shu tariqa guruhning barcha ishtirokchilari savollarga javob berib boʻlmaganlarigacha davom etadi.



2. Ishtirokchilar savol tanlab, guruhning istalgan o'quvchisiga (navbatma-navbat) savol beradilar. Javob to'liq bo'lishi lozim. Javob berishga 1 daqiqa ajratiladi.

3. Ishtirokchilar o'zlari javob berishni hohlaydigan savolni tanlaydilar. So'ng bir daqiqa davomida tanlangan savolga navbatma-navbat javob beradilar.

Metodning ahamiyati: O'quvchilarda tanlash imkoniyati orqali muammolarni maqsadlar sifatida qayta ifodalashga: nimalar qiyinchiliklarni tug'dirayotgani, qoniqtirmayotgani, to'siqlar yaratayotgani to'g'risidagi muloxazalardan maqsadlarni qo'yish va to'siqlarni bartaraf etish yo'llarini izlashga o'tishga o'rgatadi.

Fanlararo integratsiyasi: barcha fanlar bilan bo'liq tushunchalarni qo'llash mumkin va bilimlarini mustahkamlaydi.

4-USUL: "KIM? QACHON? QAERDA?" METODI:

Metodning tavsifi: o'quvchilarda bu usul faol ta'lim, asarlar yoki tarixiy voqealar va h.k muammolarni muhokama va tahlil qilishda ishlatiladi.

Metodni tashkil qilish: "KIM? QACHON? QAYERDA?" metodi o'quvchilarni uch guruhga guruhlab, har bir guruhga bitta savolni tanlash tavsiya etiladi.

- "Kim?" savolni tanlagan guruh faqat xarakterlar yoki mashxurlar haqida ma'lumot beradi.
- "Qachon?" savolini tanlagan guruh asarda insonning hayot yo'li bilan bo'lgan voqea qachon bo'lgani yoki sanalar haqida ma'lumot beradi.
- "Qayerda?" savoli tanlaganlar esa voqealar qayerda bo'lganini aytib berishi kerak.

Metodning ahamiyati: Topqirlik, olgan bilimlarini tezda esga olish xususiyati takomillashadi.

Fanlararo integratsiyasi: bu usul asar, hikoya, tarixiy voqealar beriladigan fanlar uchun mos keladi

5-USUL: "OLMA" O'YINI:

Metodning tavsifi: O'quvchilarni zeriktirmaslik maqsadida biroz hazil o'yinlari o'tkazishni tavsiya etamiz.

Metodni tashkil qilish: Qatnashuvchilar davra qurib o'tiradilar. Boshlovchi "Mening ismim... Men ...ni yaxshi ko'raman (xohlagan narsa yoki kishini aytishi mumkin)", – deydi va olma (koptok)ni biron kishiga qarab otadi. Olma (koptok)ni ilib olgan ishtirokchi ham, o'z navbatida, o'zini shunday tanishtiradi va koptokni boshqa ishtirokchiga uzatadi. O'yin barcha ishtirokchilar o'zlarini tanishtirib bo'lgunlariga qadar davom etadi. Ishtirokchilar tanishtirish jarayonida aytilishi



mumkin bo‘lgan jumlar: Men ...ni yaxshi ko‘raman. Bolalagimdan yaxshi ko‘rgan ovqatim ... edi. Men yoqtiradigan rang (gul yoki meva)ni aytishadi.[4;39]

Metodning ahamiyati: o‘quvchida mustaqillik va irodani rivojlantirish, o‘quvchida muloqotga kirishish qobiliyati va dunyoqarashni rivojlantirish.

Fanlararo integratsiyasi: barcha fanlar bilan bo‘liq tushunchalarni qo‘llash mumkin va bilimlarini mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLARNING TAHLILI

“Bobolarimizning bebaho merosi” mavzusini o‘qitishda pedagogik adabiyotlardan Sh.Sh.Sharipov, N.S.Saidova, R.J.Yo‘ldoshevlarning interfaol ta‘lim usullari – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “BBB” (Bilaman – Bilishni istayman – Bildim), “Rol o‘ynash” kabi metodlari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, muloqot madaniyatini va ijodiy faolligini rivojlantirishda samarali ekani ilmiy asoslab berilgan. Mazkur usullar tarbiya darslarida milliy merosga oid mavzularni o‘qitishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalardan M.Q.Qurbonov, D.R.Raximovalarning ta‘kidlashicha pedagogik texnologiyalar asosida darsni loyihalash, ta‘lim maqsadlarini aniq belgilash, kutilgan natijalarga erishishda interfaol yondashuvlarning o‘rni keng yoritilgan. Mualliflar ta‘kidlashicha, boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanish, hayotiy misollardan foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash dars samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, A.Avloniy, I.Gafurov, B.Qosimovlar ham milliy meros va ma‘naviy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ajdodlar qoldirgan ilmiy, ma‘naviy va axloqiy merosni yosh avlodga yetkazish ta‘lim-tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu qarashlar “Bobolarimizning bebaho merosi” mavzusini o‘qitishda nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 4-sinf tarbiya darslarida milliy merosga oid mavzularni interfaol usullar va pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va qadriyatlar uyg‘unligini ta‘minlaydi hamda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Bugungi kunda o‘quvchilarni o‘qishga qiziqishlari borasida turlicha yondashish, qiziqishlarini bir xil emasliklari yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Ularni o‘rab turgan ijtimoiy muhit o‘quvchi yoshlarimiz dunyoqarashlarida o‘z tamg‘alarini qoldirmoqda. Bunday sharoitda tarix o‘qituvchisining vazifasi sinfda mavjud bo‘lgan barcha o‘quvchilar diqqat – e‘tiborlarini ularga nisbatan diferentsiatsiya usulini qo‘llab, bir vaqtda ularning hammalari uchun maqbul bo‘lgan tarixiy materilni bayon



qilish bilan, ikkinchi tomondan har bir o'quvchining qiziqishlarini hisobga olgan holda unga individual yondashmoqqa harakat qilmog'i kerak.

Dars jarayonida o'quvchilar faoliyatiga differensial yondashuv qanday nazorat etilsa, ularning uy vazifalarini bajarishlarini nazorat etish ham shunday amalga oshirib borilmog'i kerak. Shuni alohida takidlab o'tish lozimki, tarix darsining mazmuni mustaqil O'zbekiston Respublikasining yoshlar orasida olib boriladigan mafkuraviy ishlar vaznfalariga mos kelishi, tarix o'rganishning turmush bilan aloqasini bog'langanligida, O'zbekiston kelajagi buyuk davlat bo'lishini nazariy va amaliy ishlar bilan bog'lab olib borishga yo'naltirilgan bo'lmog'i kerak.

Xulosa qilib aytganda, bu interfaol metoddan unumli foydalanish darsning samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon etishga, o'zlarining bilim darjalarini baholay olish, jamoaning fikrini hurmat qilishga hamda o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatadi.

Biz o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarga fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mehnat qilishga ehtiyojni tarbiyalab borishni ko'zda tutamiz. O'quvchilarning o'quv faoliyatini aktivlashtirishda IPTdan foydalanish yaxshi samara beradi. [4;60]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M.Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. T., O'zbekiston, 20224.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabr*dag*i “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi VM-1059-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi VM-422-son qarori.
4. Tajimuratov.S.A. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi.
5. A. Shoimov, I. Tojiyeva “Tarbiya fan”. Darslik. 4-sinf. 2023. B.15.
6. A.Sholimov, I.Tojiyeva “Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi” Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. -142-148, 2025-yil. ISSN: 3060-4613
7. A.Sholimov, I.Tojiyeva “Use of pedagogical technologies in teaching the topic of representatives of the Jadidist movement and their activities” Web of Scientist: International Scientific Research Journal. -38-45, 2025-yil. <https://wos.academiascience.org>